

**“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI**

06. Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar

EMITENTNING NOMI							
1.	To'liq:	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati					
	Qisqartirilgan:	“NKMK” AJ					
	Birja tikerining nomi:*	Mavjud emas					
ALOQA MA'LUMOTLARI							
2.	Joylashgan eri:	210100, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, 27-uy					
	Pochta manzili:	210100, Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, 27-uy					
	Elektron pochta manzili:*	<a href="mailto:info@ngmk.uz">info@ngmk.uz</a>					
	Rasmiy veb-sayti:*	<a href="http://www.ngmk.uz">www.ngmk.uz</a>					
MUHIM FAKT TO'G'RISIDA AXBOROT							
Muhim faktning raqami:		06					
Muhim faktning nomi:		Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar					
Umumiy yig'ilish turi:		Yillik					
Umumiy yig'ilish o'tkazish sanasi:		2024-yil 28-iyun					
Umumiy yig'ilish bayonnomasi tuzilgan sana:		2024-yil 28-iyun					
Umumiy yig'ilish o'tkazilgan joy:		Navoiy viloyati, Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, 27-uy					
Umumiy yig'ilish kvorumi:		100%					
№	Ovoz berishga qo'yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		Yoqlash		qarshi		betaraflar	
		%	soni	%	soni	%	soni
3.	“NKMK” AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi raisi va kotibini saylash.	100	14 999 832 119	0	0	0	0
	Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi reglamenti, sanoq komissiyasining soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.	100	14 999 832 119	0	0	0	0
	Kuzatuv kengashining 2023-yil yakunlari bo'yicha hisobotini eshitish.	100	14 999 832 119	0	0	0	0
	2023-yil moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan auditorlik xulosasini eshitish.	100	14 999 832 119	0	0	0	0
	2023-yil uchun yillik moliyaviy hisobotini ko'rib chiqish va emitentning 2023-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotini tasdiqlash.	100	14 999 832 119	0	0	0	0
	2023-yil yakuni bo'yicha olingan sof foydasini taqsimlash, dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibini belgilash.	100	14 999 832 119	0	0	0	0
	Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash.	100	14 999 832 119	0	0	0	0
	Ustavning yangi taxirini tasdiqlash.	100	14 999 832 119	0	0	0	0
	Tashkiliy tuzilmaning yangi tahririni tasdiqlash.	100	14 999 832 119	0	0	0	0
	Boshqaruv raisi – Bosh direktor bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatini uzaytirish.	100	14 999 832 119	0	0	0	0
	Boshqaruv raisi – Bosh direktor va Boshqaruvning qolgan a'zolariga	100	14 999 832 119	0	0	0	0

	to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash.						
12	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-163-son qaroriga asosan "NKMK" AJning 5 (besh) foizgacha bo'lgan aksiyalarini Xalqaro fond bozorida birlamchi (IPO) ommaviy taklifi o'tkazgan holda joylashtirish yuzasidan ishlarni tashkil etish bo'yicha qaror qabul qilish.	100	14 999 832 119	0	0	0	0
13	Korporativ boshqaruv qoidalarini tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to'g'risida qaror qabul qilish va korporativ hujjatlarini tasdiqlash.	100	14 999 832 119	0	0	0	0
Umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to'liq bayoni:							
1	Yig'ilish raisi etib J.A. Qo'chqorov va kotibi etib S.N. Murtazayev saylansin.						
2	<p>1. Yig'ilish reglamenti quyidagi tartibda tasdiqlansin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- majlis kun tartibi bo'yicha asosiy ma'ruzalar – 15 daqiqagacha;</li> <li>- har bir masala bo'yicha savollar va bahslar – 10 daqiqagacha;</li> <li>- har bir savoldan keyin munozaralarda nutq so'zlash – 5 daqiqagacha.</li> </ul> <p>2. Yig'ilish Sanoq komissiyasi quyidagi tarkibda tasdiqlansin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Davronov Elshodbek Mahmud o'g'li – sanoq komissiyasi raisi;</li> <li>- Itkina Diana Maratovna – sanoq komissiyasi a'zosi;</li> <li>- Kamalbayev Soxib Saparmuratovich – sanoq komissiyasi a'zosi.</li> </ul>						
3	Kuzatuv kengashining 2023-yil yakunlari bo'yicha hisoboti 1-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.						
4	<p>4.1. "NKMK" AJning 2023-yil yakunlari bo'yicha "MHXS"ga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotiga "Deloitte &amp; Touche" xalqaro auditorlik tashkiloti tomonidan ijobiy xulosa berilganligi axborot uchun qabul qilinsin.</p> <p>4.2. "NKMK" AJning 2023-yil yakunlari bo'yicha "BHMS"ga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotiga "TRI – S – AUDIT" MChJ auditorlik tashkiloti tomonidan ijobiy xulosa berilganligi axborot uchun qabul qilinsin.</p>						
5	"NKMK" AJning 2023-yil yakunlari bo'yicha "MHXS"ga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlari 2-ilova, "BHMS"ga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlari 3-ilova hamda emitentning yillik hisoboti 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.						
6	"NKMK" AJ tomonidan 2023-yil yakuni bo'yicha olingan sof foydaning 14,4 trln. so'm miqdori Kuzatuv kengashi tomonidan berilgan tavsiya asosida dividend sifatida davlat byudjetiga to'lab berilsin						
7	"NKMK" AJ Kuzatuv kengashining yangi tarkibi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.						
8	<p>8.1. "NKMK" AJ Ustavining yangi tahriri 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.</p> <p>8.2. "NKMK" AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktor Q.S. Sanaqulov "NKMK" AJ Ustavining yangi tahririni o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin.</p>						
9	"NKMK" AJning yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.						
10	"NKMK" AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktor Sanaqulov Quvondiq Sanaqulovich bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddati bir yilga uzaytirilsin.						
11	Kun tartibidagi ushbu masala "NKMK" AJ Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilib, ma'qullangandan so'ng aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ko'rib chiqilsin.						
12	Kuzatuv kengashi tomonidan "NKMK" AJning 5 (besh) foizgacha bo'lgan aksiyalarini Xalqaro fond bozorida birlamchi (IPO) ommaviy taklifi o'tkazgan holda joylashtirishni tashkillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi va ushbu haqidagi qaror loyihasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga kiritilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.						
13	<p>13.1. "NKMK" AJ tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 20-maydagi 179-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalarini" tavsiyalariga rioya etish majburiyati qabul qilinsin.</p> <p>13.2. "NKMK" AJning quyidagi nizomlari tasdiqlansin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi Nizom 8-ilovaga muvofiq;</li> <li>- "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizom 9-ilovaga muvofiq;</li> <li>- "Boshqaruv to'g'risida"gi Nizom 10-ilovaga muvofiq.</li> </ul>						
Aksiyadorlik jamiyatining ijroiya organi, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a'zolari foydasiga haq va (yoki) kompensatsiyalar hisoblanmagan.							
Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash:							
Nomzodlar to'g'risida ma'lumot							

№	F.I.Sh.	Ish joyi	Lavozimi	Tegishli aksiyalar		Ovozlar soni
				Turi	Soni	
1	Qo'chqorov Jamshid Anvarovich	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Bosh vazir o'rinbosari - Iqtisodiyot va moliya vaziri	0	0	14 999 832 119
2	Tashkulov Akbar Djurabayevich	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi	Vazir	0	0	14 999 832 119
3	Islamov Bobur Farxodovich	O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi	Vazir	0	0	14 999 832 119
4	Mirzayev Mubin Muxidinovich	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi	Qo'mita raisining birinchi o'rinbosari	0	0	14 999 832 119
5	Mustafayev Xurshed Baxtiyorovich	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Vazir o'rinbosari	0	0	14 999 832 119
6	Muxtorov Ilxom Muxtorovich	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi	Qo'mitasi raisi o'rinbosari	0	0	14 999 832 119
7	Akbarjonov Aziz Akbarjon o'g'li	"O'zbekiston sanoat-qurilish banki" aksiyadorlik tijorat banki	Boshqaruv raisi	0	0	14 999 832 119
8	Yon Ferye (Jon Ferrier)	Mustaqil a'zo		0	0	14 999 832 119
9	Jan-Pyer Zigran (Jean Pierre Zigrand)	Mustaqil a'zo		0	0	14 999 832 119
Ustavga kiritilayotgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalarning matni:						
20.1. Jamiyatda korporativ qonunchiligi talablari, korporativ boshqaruvi tamoyillari, Ustav me'yorlari va korporativ boshqaruvi masalalariga oid Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash va nazoratini amalga oshirish maqsadida Korporativ kotibiyat joriy etiladi.						
20.2. Korporativ kotibiyatni tuzish, uning xodimlarini tayinlash va egallab turgan lavozimdan ozod etish Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Korporativ kotibiyatga Kotibiyat mudiri - Korporativ maslahatchi tomonidan rahbarlik qilinadi.						
20.3. Korporativ kotibiyat xodimlari Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lmagan Jamiyat xodimlari hisoblanadi. Korporativ kotibiyat xodimlari o'z faoliyatlarida Jamiyatning ijroiya organidan to'liq mustaqildir.						
20.4. Jamiyatda korporativ qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish hamda Jamiyatdagi korporativ boshqaruvi joriy holatini xolisona baholashni ta'minlash maqsadida Korporativ kotibiyat faoliyatiga aralashish, to'sqinlik qilish yoki unga nisbatan boshqa tarzda tazyiq o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.						
20.5. Korporativ kotibiyat xodimlari Jamiyatning boshqaruv organlari o'rtasida samarali ma'lumot almashinuviga yordam beradi hamda Jamiyatda korporativ boshqaruvi bilan bog'liq barcha masalalar yuzasidan Kuzatuv kengashi va Boshqaruv maslahatchisi vazifasini bajaradi hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi majlislarida kotib vazifasini amalga oshiradi.						

"NKMK" AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktor

Q.S. Sanaqulov

Bosh buxgalter:

J.V. Novikova

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxsning F.I.Sh.:

S.N. Murtazayev